



**INTEGRATIV MASHG‘ULOTLAR VA DIDAKTIK O‘YINLAR
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LIDERLIK QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA**

Azizova Ziroat Bahadirovna

Qo‘qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maktabgacha yoshdagi bolalar liderlik qobiliyatini rivojlantirishda integrativ mashg‘ulotlar va didaktik o‘yinlarning o‘ziga hosligi hamda uning mazmuni hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, integrativ mashg‘ulotlar va didaktik o‘yinlarning maktabgacha ta‘limdagi o‘rni, ularning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishdagi o‘rni hususida ham ayrim fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Integrativ mashg‘ulotlar va didaktik o‘yinlar, maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyalanuvchilari, shaxsiy xususiyat, boshqaruv ko‘nikmasi, shaxslararo munosabat, muammo.

**ИНТЕГРАТИВНЫЕ ЗАНЯТИЯ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ КАК
СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Азизова Зироат Бахадировна

Независимый исследователь Кокандского ГУ

Абстрактный

Высказаны соображения о специфике и содержании интегративных упражнений и дидактических игр в развитии лидерских качеств у детей дошкольного возраста. В статье также представлены некоторые размышления о роли интегративной деятельности и дидактических игр в дошкольном образовании, а также их роли в развитии детей дошкольного возраста.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

Ключевые слова. Интегративная деятельность и дидактические игры, воспитанники дошкольной образовательной организации, личностные особенности, управленческие навыки, межличностные отношения, проблема.

INTEGRATIVE EXERCISE AND DIDACTIC GAMES AS A MEANS OF DEVELOPING LEADERSHIP SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN

Azizova Ziroat Bahadirovna

Independent researcher at Kokand State University

Annotation

The article presents some thoughts on the specifics of integrative exercises and didactic games in developing the leadership skills of preschool children and their content. The article also presents some thoughts on the role of integrative exercises and didactic games in preschool education, their role in the development of preschool children.

Keywords: Integrative exercises and didactic games, students in a preschool educational organization, personal characteristics, management skills, interpersonal relationships, problem.

Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlash hamda, shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishda motivlashgan, mazmunli, metodik hamda tashkiliy komponentlar orasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi.

Zamonaviy talablarga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlari rivojlanish markazlarida tarbiyalanuvchilarga dastlabki boshqaruv ko'nikmasini shakllantirishga oid bilimlar mohiyatini anglatishga ham e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Xususan, ijtimoiy-huquqiy, axloqiy mazmundagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida qo'l keluvchi bilimlar, turli mahsulotlar, jihozlar va buyumlarning qiymati va sofligini belgilay olish imkoniyatini beruvchi iqtisodiy bilimlar, shuningdek atrof-muhit, tabiat, shaxslararo munosabatlarni anglash jarayonida



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

liderlikka oid bilimlarni berishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilardan zamonaviy bilim asoslarini chuqur egallash, amaliy ko'nikma va malaka, kompetensiyalarga ega bo'lishlarini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini zamonaviy bilimlar, xususan, zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari bilan qurollantirish shu kunning talabi. Mamlakatimizda mazkur yo'nalish bo'yicha bir qator ilmiy-metodik ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilarini innovasion pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish, mashg'ulotlarni olib borish jarayonida axborot texnologiyalar xizmatidan foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni qaror toptirish maqsadida seminar treninglarning tashkil etilishi ushbu soha xodimlari oldida turgan asosiy vazifalarning ijobiy yechimini ta'minlash yo'lidagi samarali qadamdir

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlikni shakllantirishda integrativ mashg'ulotlar va didaktik o'yinlardan foydalanish aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonni tashkil etishdan ko'zlangan bosh maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarning jamoaviy ishlash ko'nikmasini, axloqiy tarbiyani tarkib toptirish; hayotiy vaziyatlarda mavjud imkoniyatlardan foydalanish borasidagi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Muhokama va natijalar. Differensial yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida liderlik qobiliyatlarini tarbiyalash borasidagi ko'nikma va malakalar darajasi quyidagi mezonlarga ko'ra aniqlanadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar liderlikni shakllantirish borasidagi pedagogik ehtiyojning his etilishi.
2. Tarbiyachilarning ta'limga differensial yondashuvni tatbiq etishga oid ma'lumotlarga ega bo'lishlari.
3. Tarbiyalanuvchilarda liderlik ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda o‘yinlardan foydalanishga nisbatan ijodiy yondashuvlar darajasi.

Tadqiqot ishini samarali tashkil etishda quyidagi tamoyillarning ustuvor o‘rin tutishi maqsadga muvofikdir:

1. Didaktik maqsadning aniqligi.
2. Mashg‘ulotlarning uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilishi.
3. Tarbiyalanuvchilarda liderlik sifatlarni shakllantirishda ta'lim va tarbiya birligi.
4. Mavjud sharoit hamda sub'ektlarning ta'limiy faoliyatga nisbatan differensial yondashuvlariga e'tibor qaratish.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish.
6. Maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy layoqat va qobiliyatlarini faol namoyish etishlari.
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarning integrativ hamda dinamik xususiyat kasb etishi.
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarning insonparvarlik g‘oyalari asosida yo‘lga qo‘yilishi.

Tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirish quyidagi omillar asosida ijobiy kechishi aniqlandi:

1. Ob'ektiv omil (shart-sharoitlar):
 - a) maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalar liderlik sifatlarning shakllanishi uchun yetarli shart-sharoitning yaratilganligi (metodik ta'minot, to‘garaklarning mavjudligi);
 - b) mashg‘ulotlar jarayonining zamonaviy texnik jihozlar hamda axborot texnologiyalari bilan qurollantirilganligi;
 - v) maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga oid maxsus adabiyotlar (o‘quv qo‘llanmalari, metodik tavsiyanomalar, ko‘rsatmali qurollar, al'bomlar, turli maketlar, xom-ashyolar va ish qurollari, internet saytlaridan foydalanish) bilan ta'minlanganlik darajasi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

2. Sub'ektlar tomonidan bildirilayotgan munosabat (sub'ektiv omillar):

a) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbariyati tomonidan bu borada yetarli shart-sharoit yaratib berilayotganligi

b) tarbiyachilar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning liderlik qobiliyatlarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi;

g) tarbiyachilarda maktabgacha yoshdagi bolalar liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga oid kompetensiyalarining mavjudligi;

j) tarbiyachilarning ta'limiy faoliyat jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarni shakllantirishga nisbatan differensial yondashuvlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning differensial yondashuv asosida tashkil etilishi ijobiy samara bera olishi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim nazariyasining mohiyatini o'rganish, bu borada yaratilgan manbalar mazmuni bilan tanishish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan differensial yondashuvning mohiyati quyidagi holatlarni aks ettiradi;

1. Maqsadning aniq belgilanishi (shuningdek umumiy maqsad doirasida xususiy maqsadlarning to'g'ri belgilanishi).

2. Ta'lim jarayonida integrativ didaktik mashg'ulotlardan foydalanish vazifalarining to'g'ri qo'yilishi.

3. Pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarni ilmiy-metodik jihatdan maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri tanlanishi.

4. Integrativ mashg'ulotlar va didaktik o'yinlar jarayonida qo'llaniluvchi va samaradorligi yuqori bo'lgan metod va texnologiyalarning belgilangan vazifalarning amalga oshishi uchun xizmat qilishi.

5. Samarali vositalarning ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tanlanganligi.

6. Mashg'ulotlarning faol sub'ektlari bo'lgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi roli va vazifalarining aniqligi.

7. Integrativ mashg'ulotlar va didaktik o'yin jarayonining samarali kechishi.

8. Tarbiyalanuvchilar faoliyati va uning samaradorligini aniqlashga yo'naltirilgan nazorat shakli va metodlarining maqsadga muvofiq tanlanganligi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

9. Maqsadning liderlikni shakllantirish nuqtai nazaridan ilmiy-amaliy jihatdan to'g'ri natijalanganligi.

Mazkur yondashuvlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik qobiliyatlarini tarbiyalash ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Ana shu fikrlarga tayangan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin: maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlikni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunining ilmiy-amaliy jihatdan, bolaning qiziqishi, yosh xususiyatiga mos holda ishlab chiqilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu yo'nalishda amaliy faoliyatlarni yo'lga qo'yish imkonini beradi va uniig samarali kechishini ta'minlaydi; bolalarni shaxslararo ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik sifatlarni shakllantirish jarayonida integrativ mashg'ulotlar hamda didaktik o'yin texnologiyasidan muntazam va izchil foydalanish mashg'ulotning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'yin nafaqat liderlikka oid tushunchalarni o'zlashtirishga turtki beradi, balki bolalarni hayotga tayyorlaydi, ularni mehnat faoliyatida va o'zaro munosabatlarda to'g'ri yo'nalish olib bilishga o'rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda integrativ mashg'ulotlardan foydalanishga ehtiyoj bir qator sabablar bilan izohlanadi:

- bolalarni o'rab turgan dunyo xilma-xilligi, ko'pincha maktabgacha ta'lim dasturining atrof olamning individual hodisalarini o'rganishga qaratilgan bo'limlari butun hodisa haqida tasavvur bermaydi, uni turli xil bo'laklarga ajratadi;
- integrativ mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarning salohiyatini rivojlantiradi, ularni atrofda voqelikni faol idrok etishga, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiqiy fikrlash, kommunikativ va liderlik qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi;
- integrativ mashg'ulotlar nostandart, qiziqarli bo'lganligi sababli, turli xil faoliyat turlari bilan tarbiyalanuvchilar e'tiborini tortadi, bu esa maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradi;
- integratsiyalashgan mashg'ulotlar muhim pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi, charchoqni ketkazadi, turli ta'limiy faoliyatlarga o'tish orqali tarbiyalanuvchilarning ortiqcha zo'riqishi oldini oladi, kognitiv qiziqishni sezilarli darajada oshiradi, tasavvur, fikrlash, nutq va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi;



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

- zamonaviy jamiyatdagi integratsiya ta'limda ham integratsiya zarurligini ta'kidlaydi, jamiyat yuqori malakali, yaxshi o'qitilgan mutaxassislarga muhtoj. Ushbu ehtiyojni qondirish yuqori malakali, mahoratli mutaxassislarni tayyorlashdan boshlanadi;

- integrativ didaktik mashg'ulotlarda fanlararo aloqalarning mustahkamlanishi asosida tarbiyalanuvchilarning rivojlanish faoliyati, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar uchun sharoit yaratiladi;

- integratsiya tarbiyachining o'zini namoyon qilishi, o'zini o'zi anglashi, rivojlanishi ijodkorligi uchun imkoniyat yaratadi, uning qobiliyatlarini oshkor qilishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, integrativ mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim didaktikasining asosiy talablaridan biri - hajmi kichik, ammo sig'imli bo'lishiga javob berishi kerak.

N.E.Vasyukova, O.I.Chexonina ushbu turdagi mashg'ulotlarga quyidagi ta'rifni beradi:

Xulosa

Integratsiyalashgan mashg'ulotda - turli ta'lim sohalari teng ravishda birlashtirib, bir-birini to'ldiradi (musiqqa, adabiyot, tasviriy faoliyat). Ular orasidagi assosiativ aloqalar bilan turli xil faoliyat turlari orqali vazifalarni birlashtirib bajarish (yong'in xavfsizligi qoidalari haqida suhbat mavzu bo'yicha plakat chizishga aylanadi) mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, bunday mashg'ulotlarda faoliyatning bir turi ustunlik qiladi, ikkinchisi esa uni to'ldiradi, hissiy kayfiyatni yaratadi.

Integrativ mashg'ulot - bu o'zaro keng axborot sohasida birlashtirilgan turli xil faoliyat turlari orqali ma'lum bir mavzuning yaxlit mohiyatini ochib berishga qaratilgan faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: p.f.f.d.(PhD)diss. – Toshkent, 2020 – 161 b

2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: Tafakkur nashriyoti, 2019- 688 b.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th May 2025

-
3. To‘ychiyeva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Avtoref. ped.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) – T.: 2020. – 26 b.
 4. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish // p.f.f.d.(PhD) diss...avtoreferati. –T.:2021. 54 b.
 5. Антонова Т.В. Роль общения в регулировании отношений детей дошкольного возраста в игре : Автореф. дис ... канд. пед. наук. М., 1983.
 6. Аржанова А.И. Психологические основы товарищества и дружбы детей дошкольного возраста: Автореф. дис ... канд. психол. наук. М., 1991